

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA AFFIKSLAR SEMANTIKASI

Baxranova Dilnoza Usmonqulovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Koreys filologiyasi kafedrasi Katta o‘qituvchisi,

baxranovadil@gmail.com

Sayfiddinova Dildora Shovkiddin qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Koreys filologiyasi kafedrasi 2-kurs magistranti

sayfiddinnovadildora@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada koreys va o‘zbek tillarida affikslar turlari va ular orqali anglashiladigan semantik munosabatlar haqida ma’lumotlar berilib, ikki tilda tipologik tahlillar keltirilgan. Affikslar o‘zi mustaqil ma’noga ega bo‘lmasalarda, ismlar guruhi yoki kesimlar guruhiga qo‘shilib, muayyan bir ma’noga egaligi va ularsiz gaplarni hosil qilolmasligimiz yaqqol namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari affikslarning har ikkala tilda o‘xshah va noo‘xshashliklari mavjudligini guvohi bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: agglyutinativlik, tipologik tahlil, asos, affiks, semantika, prefix, suffiks, derivatsion affiks, fleksion affiks, bog‘lovchi qo‘shimcha, tugallovchi qo‘shimcha, teng bog‘lovchi, ergashtiruvchi bog‘lovchi, yordamchi bog‘lovchi.

Affikslar yakka holda lug‘aviy ma’no ifodalamay, o‘zakka qo‘shilib, uning leksik va grammatik ma’nosini shakllantirishda ishtirok etadigan qismdir. Affiksal morfemalar vazifasiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. O‘zakka qo‘shimchalar qo‘shish orqali tilda yangi so‘zlar paydo bo‘ladi, so‘zlarning shakli o‘zgaradi, ular orqali gapdagi vazifasi aniqlanadi. Koreys tilida qo‘shimchalar o‘z xususiyatiga ko‘ra kelishik qo‘shimchalari, yordamchi qo‘shimchalar va bog‘lovchi qo‘shimchalarga bo‘linadi. Bundan tashqari bunday qo‘shimchalar butun bir gapga tegishli bo‘lib, uning ma’nosini ta’kidlab, kuchaytirib, chegaralab kelishi, so‘roq ma’nolarini belgilab kelishi ham, alohida so‘zlarga bog‘liq holda shu so‘zning qo‘shimcha ma’nolarini, ma’no nozikliklarini ifodalab kelishi ham mumkin.

Agglyutinativlik lingvistik tipologiyaning til tasniflaridan biri bo‘lib, o‘zakka affikslar qo‘shilib, ma’nosi o‘zgarib turadigan til shaklidir. Koreys tili ham agglyutinativ til hisoblanadi. Gap tahlilida, aslida ma’noni ifodalovchi markaziy qism so‘zdir. Bunda so‘zlarning markaziy ma’noga ega bo‘lish yoki bo‘lmasligiga ko‘ra bo‘linishi, markaziy ma’noli bo‘lak “ildiz” ya’ni o‘zak, ikkinchi darajali bo‘laklar esa “affiks” deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, u barcha so‘zlarning morfemalarini tahlil

qilishda ma'noning markaziy qismidir. Morfologiyada **ildiz** (어근), **o'zak** (어간) va **asos** (어기) o'rtasidagi farqlar. Ildiz, o'zak va asos - bularning barchasi affiks qo'shilishidan oldingi bosqichdagi shaklni tavsiflovchi atamalardir. "ildiz" va "o'zak" ta'riflari umumiy ta'riflardan farq qiladi. So'z bir morfemadan yoki bir nechta morfemada yasalishi mumkin. Bu yerda morfemalarni so'z yasashdagi roliga ko'ra tasniflash zarur. So'zlarni tashkil etuvchi morfemalarni asos va affiks esa doimo so'zning periferik qismi vazifasini bajaradigan morfemadir. "어기" atamasi o'rniga "so'z ildizi" atamasi ishlatilishi mumkin. Biroq, ildiz –bu qo'shimcha (어미) faqat to'g'ridan-to'g'ri tugash bilan birlasha olmaydigan va mustaqil shakl bo'lmagan so'zlarga tegishli atama. "깨끗하다, 조용하다, 급하다" dan "깨끗". Aytish mumkinki, "조용", "급" kabi so'zlar tor ma'noli o'zaklarga ega. Ma'lumot uchun, **affiks** (접사) - bu gapda paydo bo'lishi uchun asos bilan birikishi kerak bo'lgan qaram morfema. So'zdan oldin yoki keyin qo'yilishiga qarab **prefix** (접두사) va **suffiks** (접미사)larga bo'linadi. Prefiks - bu so'zning old qismiga (ildizga) biriktirilgan va boshqa so'z hosil qilish uchun ma'no qo'shadigan birlik. Qo'shimcha hosila hosil qiluvchi affiks bo'lib, yangi so'z yasash uchun ildiz (so'z) oxiriga qo'shiladigan birlikdir.¹

Affikslar ham **fleksion affikslar** (굴절접사) va **derivatsion affikslar** (파생접사) ga bo'linadi. Derivatsion affiks so'z bilan qo'shib, yangi so'z hosil qiluvchi affiksdur. Koreys tilidagi barcha prefikslarni shu derivatsion affiksiga tegishli deyish mumkin. Va qo'shimchalar ichida "잠-보, 덮-개, 넓-이" ham shu tipdagi derivatsion affikslardir. Fleksion affikslar yangi so'z yasash qudratiga ega emas, ular faqat so'zning oxirini, ya'ni fleksiyaning o'zgartiruvchi affikslardir. Ular ko'pincha tugallovchilar deyiladi. Tugash so'z oxiriga qo'shilgan birlik tufayli berilgan nomdir. Ko'pchilik tillarda fleksion affikslari faqat qo'shimchalar bo'lib, old qo'shimchalar mavjud emas, shuning uchun tugatish atamasi keng qo'llanila boshlandi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, "뛰-는다, 뛰-고, 뛰-니, 뛰-어라" bir morfemaga mansub so'z shakllari bo'lib, ularning "-는다, -고, -니, -어라" shakllari hammasi "뛰다" so'ziga qo'shilayotgan **qo'shimcha** (어미)lardir. Affix (접사) o'zi ishlatilmaydigan, lekin har doim boshqa ildiz yoki so'z bilan bog'lanib, yangi so'z

¹ 양지현 '중세한국어 접미사 한국 연구/275~305쪽 2022.2.

hosil qiluvchi qism. Asosan **sifat** 형용사, **fe'l** 동사, **ravish**부사, **sifatlovchi-aniqlovchi** 관형사, **olmosh** 대명사, **tobe ot** 의존명사 va boshqa umumiy otlar kabi til komponentlarini bir-biriga bog‘lash orqali tugallovchi vazifasini bajaradi.

Shu tarzda yaratilgan so'zlar yasama so'zlardir. Bundan tashqari affikslarni tugallovchi **선어말 어미** va bog‘lovchi affikslar **연결 어미** ga ajratamiz. Bog‘lovchi qo‘shimchalar (**연결 어미**) ham oxirgi qo‘shimcha **선어말 어미** tarkibiga kiruvchi qo‘shimcha hisoblanadi. Bog‘lovchi qo‘shimchalar ikki gapni yoki murakkab gapni (bog‘lovchili) gapdagi bo‘laklarni o‘zaro bog‘lashda ishtirok etadi.

예: 인생은 짧다 + 예술은 길다.=인생은 짧고 예술은 길다. Hayot qisqa, san’at uzun.

Bog‘lovchi qo‘shimchalar (**연결어미**) ikki gap yoki murakkab gap bo‘laklarini bog‘laydi va turli ma’nolarni ifodalaydi. Har bir bog‘lovchi qo‘shimchalar o‘z xususiyati va ma’nosiga ko‘ra quyidagicha tasniflasak bo‘ladi. So‘z gapda qaysi bog‘lovchi qo‘shimchalar olishiga ko‘ra quyidagicha:²

Turkum 구분	Ma’no 의미	Qo‘shimcha 어미
Teng bog‘lovchi 대등적연결 어미	Biriktiruv 연결	-고, -(으)며, -과/와, -(이)랑, -하고
	Zidlov 상반	-지만
	Ayiruv 분리	-이나, -거나, -든(지), -ㄴ/는데, -든지, 말든지, -거나, 아니면
Ergashtiruv Bog‘lovchilar 종속연결 어미	Bir vaqtlilik 동시 연속히	-자(마자), -(으)면서
	Sabab 이유/원인	-(으)니까, 아/어서, 고서, 느라고
	To‘siqsizlik 양보	-(어)(여)도,
	Gumon, taxmin 가정	-ㄹ 테니까, (ㄹ 테니), -ㄹ(을) 텐데
	Holat 계기	-어/아서, 고 나서
	Shart - sharoit 조건	-거든, (으)면
	Maqsad 목적/의도	-(으)러, (으)려고, -(으)려면, -고자
	Yutuq erishish 미침	-도록

² 남기심 "외국인을 위한 한국어" 문법 대한민국 서울 커뮤니케이션북스 2005 .116

	Zaruriyat 필연/당위	-어야/여야
	Ko'chish 전환	-다가
	Chog'ishtiruv 비유	-(듯)시
	Ko'proq 더욱	-(으)ㄴ 수록
	Natija 양보	-아무리 A/V -아/어도, 더니
	Izoh 설명	-다니, 도록
Yordamchi bog'lovchilar 보조적연결 어미	Yordam 보조	-고

-고 affiksi gapning ikki yoki undan ortiq bo'laklarini va qo'shma gaplarni bog'laydi. 저는 시장이 **가고** 친구가 대학교에 갔습니다. Men bozorga do'stim institutga bordi. Ushbu qo'shimcha bir vaqtda ikki harakat bo'lishini ifodalaydi.

저는 기타를 **쳤고**, 친구는 노래 불렀습니다. Men gitara chaldim, va do'stim qo'shiq kuyladi. Birinchi va keyingi gapdagi harakatning izchilligini va muntazamligini ifodalaydi. 숙제를 다 **하고** 영화를 봤습니다. Hamma uy vazifalarimni qilib, kino ko'rdim. 음식을 **먹고**, 책을 읽습니다. Ovqat yeb bo'lib, kitob o'qiyman. Birinchi gap tugaganiga qaramasdan keyingi gapdagi harakat davom etayotganligini ifodalaydi. 언니가 옷을 입**고** 밖에 나갔습니다. Opam kiyimini kiydi va tashqariga chiqdi.

-아 (어/여) 서 affiksi oldingi va keyingi gapdagi fe'llarni bog'laydi, keyingi gapdagi tugallangan harakatning sababini ifodalash uchun foydalaniladi. Bu qo'shimcha qo'shilib kelgan oldingi gap kesim o'zagiga hech ham o'tgan va kelasi zamon qo'shimchasi qo'shilmaydi va keyingi gap kesimi buyruq va undov gaplarning tugallovchi qo'shimchalarini olmaydi. 돈이 **없어서** 여행에 못 갔습니다.

Pulim yo'qligi uchun sayohatga borolmadim. 배가 **앞아서** 병원에 갔습니다. Qornim og'rigani uchun shifoxonaga bordim. Oldingi gap kesimiga qo'shilib undagi harakat keyingi gap vaqtiga nisbatan oldin bo'layotganini bildiradi. U bir-biriga o'zaro bog'liq. Oldingi gap kesimi harakat fe'lidan iborat bo'lsa, keying gap kesimini tugallovchi shaklida cheklanish bo'lmaydi. O'zbek tiliga ravishdosh -b(ib) yordamida tarjima qilinadi. 시장에 **가서** 옷을 살 거예요. Bozorga borib yangi kiyim sotib olaman.

-**(으)니까** oldingi gapdagi harakat va holatni sababini ko'rsatganda qo'llaniladi.–

아서/어서 sababni ifodalasa, **-(으)니까** esa so'zlovchining fikri yoki shaxsiy hissiyotini ifodalaydi. Bundan keyingi gapning tugallovchi shakli asosan buyruq gap (명령문) va taklif gap (청유문) bo'lib keladi. **방이 더우니까 창문을 여세요.** Xona issiqligi uchun derazani oching. Birinchi gapdagi harakat ikkinchi gapdagi harakat bilan tasdiqlanganda yoki ochib berilganda vaqtinchalik asos ma'nosini beradi. Birinchi gapda so'zlovchi harakat sub'yekti sifatida namoyon bo'ladi. Keyingi gapdagi sub'yektning ko'p qismi izoh ma'nosida keladi. **역사를 공부해 보니까 사람을 이해하게 됩니다.** Tarixni o'qiganim uchun odamlarni tushunayapman.

-은/는데 agar oldingi gapdagi harakat va holat keyingi gapda aytilayotgan gap bilan bog'liq bo'lsa, **은/는데** shakli holat va jarayonni bildiradi aniqlashtirish ma'nosida keladi. **비가 오는데 우산을 가지고 가세요.** Yomg'ir yog'yapti zontikni olib keting. Agar bu shakl otga qo'shilsa, **-인데** tarzida bo'ladi. **오늘은 월요일인데 대학교에 가야 해요.** Bugun dushanba institutga borishim kerak. Oldingi gap va keying gap o'rtasidagi tobe ma'no aloqasi zidlik, vaqt, sharoit kabi aniq ma'nolarni namoyon qiladi. **시업 시장까지 버스로 가는데 몇 분 걸려요?** Siyob bozorga avtobusda borish uchun necha minut ketadi. Ba'zan kesimning tugallovchi shakli sifatida kelib, so'zlovchining boshqa odamning fikrini tinglash ma'nosini bildiradi. **이 옷이 아주 예쁜데요.** Bu kiyim juda chiroyli.

-아 (어/여)도 bu qo'shimcha fe'lga **좋다, 괜찮다, 되다** va shu kabi so'zlarga qarashib keladi, belgilangan oldingi fe'ldagi harakatga ruxsat, suhbatdoshning istagi haqida so'roqni ifodalaydi. **이 옷을 사요. 비싸도 괜찮아요.** Bu kiyimni sotib olaman. Qimmat bo'lsa ham hechqisi yo'q. Oldingi gapdagi faktga e'tiroz bildirilsa, keyingi gapga qandaydir aloqasi borligini ifodalaydi. **아무리** ravishi bilan qo'llanganda aniqroq ma'noni ifodalaydi. **아무리 돈이 많아도 건강이 좋지 않아요.** Qanchalik pulim ko'p bo'lsada, sog'ligim yaxshi emas. Agar **-아/어도** gapda kesimni tugallovchi so'roq shakllar bilan qo'shib kelsa, butun gap so'roq shaklida bo'ladi va unga inkor javob bo'lganda albatta **-면** qo'llaniladi. **-교실에 들어와도 됩니까? – 들어오면 안 됩니다.** –Xonaga kirsam maylimi? –Mumkin emas.

(으)려고 fe'l bilan qo'llanilib, istak va maqsadni ifodalaydi, sifatga qo'shilmaydi.

O'zbek tiliga uchun, maqsadida deb tarjima qilinadi. 유학하려고 한국에 갈거예요. O'qish maqsadida Koreyaga bormoqchiman.

(으)러 harakat fe'liga qo'shib maqsadni ifodalaydi. 공부하러 대학교에 다닙니다. O'qish uchun institutga boraman.

-(으)면 Tugallangan harakat yoki keying gap holati uchun dastlabki sharoitni ifodalaydi. Taxmin faraz ma'nosini ifodalaydi. 봄이 오면, 꽃들이 핍니다. Bahor kelsa, gullar ochiladi.

-아/어야 oldingi gapdagi fe'l harakati albatta bo'lishi sharti bilan keyingi fe'l harakati ro'y beradi. Ko'pincha fe'l bilan keladi. Ammo ba'zan 이다 va 아니다 fe'li bilan -(이)라야 shakli bilan qo'llanadi. 겨울에 추워야, 다음 농사가 잘 됩니다. Qish sovuq bo'lsagina, keyin hosil yaxshi bo'ladi.

-도록 ish-harakatning darajasi yoki chegarasini ifodalab, faqat faol fe'llar bilan qo'llaniladi. 늙도록 건강이 나빠졌어요. Qariganim sari sog'ligim yomonlashib ketdi.

-(으)면서 bu qo'shimcha ikki harakat yoki holatni bir vaqtda bo'lishini bildiradi. Birinchi va keyin gapning sub'yekti bitta bo'ladi. 전 영화를 보면서 점심을 먹었습니다. Men kino ko'rib tushlik qildim.

-(으)며 bir vaqtda bo'ladigan ikki yoki undan ortiq harakat va yoki makonga oid holatni ifodalash uchun qo'llaniladi. 이 구두 값도 싸며, 질도 좋습니다. Bu tuflining narxi ham arzon sifati ham yaxshi.

-지만 oldingi gapdagi harakatga zidlik, qarshilik ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. 눈이 오지만 그렇게 춥지는 않다. Qor yog'yapti, lekin unchalik sovuq emas.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har ikkala til oltoy tillar oilasiga mansub bo'lib, agglyutinatsiya hodisasi ustun sanaladi. Koreys va o'zbek tillarida o'zakka qo'shiladigan qo'shimchalarni esa, o'zaro variantlilik, funktsionalligi o'ziga xos modeliga ega. Bu tillardagi mavjud affikslar solishtirilganda, semantik munosabatga kirisha olishi bilan komparativ va ayrim qo'shimchalari mavjud emasligi bilan kontrastiv xususiyatlari mavjud deyishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baxranova D.U. Koreys tili grammatikasi, Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma, SamDChTI Samarqand-2019, 80-b
2. Baxranova D.U. Koreys tili grammatikasi, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, SamDChTI, Samarqand-2022,79-b
3. Eshimova. Sh. K, Koreys tili kelishiklar tizimi o‘quv-uslubiy qo‘llanma, Samarqand2019, SamDChTI, 72-b
4. Hamroyev M.“Ona tili” Toshkent Iqtisod-moliya 2007 274.146-b
5. Ne’matov H, Sayfullayeva R, Qurbonova M. O‘zbek tili struktural sintaksisi asoslari, 1999 325-b
6. Safarov Sh. “Semantika” O‘zbekiston milliy ensklopediyasi Toshkent 2013 239-bet
7. Seungho. (2003). Lexical semantic Structures and argument alternations of movement verbs in Korean 154-b
9. 박철우 한국어 의미론 모바일교보문고 2023, 155
10. 임지현 '중세한국어 접미사' 한국 연구 /275~305
11. 남기심 "외국인을 위한 한국어" 문법 대한민국, 서울, 커뮤니케이션북스, 2005 .116

internet saytlari

12. <https://www.gazeta.uz>> 2022/08/16
13. <https://encykorea.aks.ac.kr/>